

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10858959>

**ULUG‘BEK HAMDAMNING “ISYON VA ITOAT” ASARIDA INSON VA
JAMIYAT O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARNING
BADIY TALQINI**

Bekzod Ko‘liboy Orzuboy o‘g‘li
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistranti
bekzodkulibayev@mail.ru

B.To‘rayeva
Ilmiy rahbar: Phd, dotsent

ANNOTATSIYA

Maqolada Ulug‘bek Hamdamning “Isyon va itoat” asarida inson va jamiyat tushunchasining o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni hamda bahsli nazariyalarini chuqur badiiy tahlil qilish zaruriyati to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: inson, jamiyat, xarakter, reallik, ijtimoiy-psixologik konsepsiylar, tizim.

**ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ УЛУГБЕКОМ ХАМДАМОМ
ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ЧЕЛОВЕКА И ОБЩЕСТВА В
«БУНТЕ И ПОСЛУШАНИИ»**

АННОТАЦИЯ

В статье произведение Улугбека Хамдама «Бунт и повиновение» говорится о необходимости глубокого художественного анализа концепции человека и общества в узбекской литературе и спорных теориях.

Ключевые слова: человек, общество, характер, жизненная реальность, социально-психологические концепции, система.

ULUGBEK HAMDAM'S ARTISTIC INTERPRETATION OF THE RELATIONSHIP BETWEEN MAN AND SOCIETY IN “REBELLION AND OBEDIENCE”

ANNOTATION

In the article, Ulugbek Hamdam's work “Rebellion and Obedience” talks about the need for deep artistic analysis of the concept of man and society in Uzbek literature and controversial theories.

Key words: man, society, character, life reality, socio-psychological concepts, system

KIRISH

Jamiyat hayotini aks ettiruvchi adabiyot davr bilan hamnafas yangilanib, ham janriy, ham mazmuniy takomillashib bormoqda. Bugungi o‘zbek adabiyotining ahamiyatli va qalami o‘tkir ijodkorlaridan biri Ulug‘bek Hamdam ijodi shakliy va mazmuniy yangilanishlarga boyligi, davrning dolzarb muammolarini o‘ziga xos tarzda yoritib bergenligi, ramziylikning ustuvorligi bilan xarakterlidir. Uning o‘ziga xos badiiy uslubi - obraz hamda xarakter yaratish usullaridagi inson va jamiyat masalalarini tadqiq etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ulug‘bek Hamdam ijodida inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning badiiy tahlili adabiyotimizda ma’lum jihatlari bilan yoritilgan bo‘lsa ham, yaxlit holda tadqiq etilmagan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHЛИLI

Biz o‘rganayotgan Ulug‘bek Hamdam ijodi bir qator adabiyotshunos olimlar, adabiy tanqidchilar tomonidan muayyan aspektlarda o‘rganilgan. Jumladan, O.Sharafiddinovning “Ijodni anglash baxti”(2004)¹, U.Normatovning “Ijodkorning haroratli so‘zi” (2015)² asarlari, Q. Yo‘ldoshning “Yoniq so‘z” kitobi (2016)³,

¹ O.Sharafiddinovning “Ijodni anglash baxti”, “Sharq”(2004)

² U.Normatovning “Ijodkorning haroratli so‘zi”, “Sharq”(2015)

³ Yo‘ldosh Q. Yoniq so‘z . - Toshkent, Yangi asr avlod , 2006

D.Quronovning “Zavqimdan bir shingil”(2013) risolasi, D.Quronovning “Mutolaa va idrok mashqlari”¹ (2013) kitobi, Y.Solijonovning “Haqiqatning sinchkov ko‘zлari” (2009),² Sa’dulla Quronov “Ifoda va ifodaviylik”³ (2012) kitoblarida tahlil qilingan. Ulug‘bek Hamdamning ijodi yuzasidan adabiy-tanqidiy qarashlar mavjud. Jumladan Sh.Botirovaning “Sabo va Samandar” romanida ruhiyat ifodasi” maqolalarida, M.Qo‘chqorovaning “Muvozanat” romanida shartli ramzlar” maqolasida romandagi ramziy obrazlar va ularning talqinlarini yoritib berilgan obrazlarning ruhiy kechinmalari yoritib beriladi. L.Rahimovaning “Badiiy konflikt talqini” maqolasida romanda qo‘llangan konflikt turlari tahlil etiladi. I.Yoqubov “O‘zbek romanining ma’naviy-ruhiy asoslari” maqolasida esa Ulug‘bek Hamdamning romanlarida ham millat kishisining ruhiy-ma’naviy iztiroblari jonli obrazlar orqali tiniq tasvirlanganligini ko‘ramiz. Adib asarlari yuzasidan qardosh va chet el adabiyotshunosligi ham munosabat bildirilganligi bu ijod namunalarining o‘ziga xos o‘rnidan dalolat beradi. Xususan, turk, rus, ingliz tillarida maqolalar e’lon qilingan. Masalan, K.I.Panchenko “Bojestvenniy polet tupiki dushi”, “Duxovno – kulturologicheskiye osnoviye “religiozniy tematiki v sovremennoy russkoy i uzbekskoy literature” N.Ilin “Povest Ulugbek Hamdama Odinochestvo”, “Predisloviye”, “V poiskax utrachennogo raya...”, K.I.Panchenko “Bojestvenniy polet tupiki dushi”, “Duxovno – kulturologicheskiye osnoviye “religiozniy tematiki v sovremennoy russkoy i uzbekskoy literature”, kabilar shular jumlasidan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ulug‘bek Hamdamning “Isyon va itoat” asarida inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning badiiy talqini, jamiyatning qahramon ruhiyatiga bevosita va bilvosita ta’siri, obraz, xarakter va tip, ijodkor shaxs muammosi, shuningdek, asarning konseptual g‘oyasini yuzaga chiqaruvchi ustoz va shogird obrazlarining badiiy tahlili muhokama qilinadi. Makroxronotop va mikroxronotopning metaforik uyg‘unligi.

¹ Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. –Toshkent.: Akademnashr, 2013-yil.

² Solijonov Y. Haqiqatning sinchkov ko‘zлari. –T.: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2009-yil

³ Ali U. Ko‘ngilga sayr. –T.:Yangi asr avlod, 2009-yil.

Makroxronotopni yuzaga keltirgan ijtimoiy omillarning badiiy tasviri, Obraz mikroxronotopini yaratishda badiiy psixologizmning o‘rnini tadqiq qilish. Izlanishlar natijasida yozuvchilarining roman janri rivojiga qo‘shtgan hissasi namoyon bo‘ladi. Adibning obrazlar tizimi, bayon uslubidagi yangicha qarashlari oydinlashtirildi.

Badiiy adabiyot ijtimoiy ong shakli sifatida tarixiy taraqqiyot qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Jamiyatda yuz berayotgan moddiy-ma’naviy o‘zgarishlar badiiy adabiyotda ham o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Adabiyot va san’atdagi o‘zgarishlar ma’lim bir sabablarsiz sodir bo‘lmaydi. Adabiyotdagi rivojlanish bosqichma-bosqich keng ko‘lamni qamrab olish bilan sodir bo‘ladi. Har bir davr adabiy san’ati o‘zidan oldingi san’at bilan bog‘liq bo‘lib, takomillashib, rivojlanib boradi. Bir xalq adabiyoti ikkinchi xalq adabiyotiga ta’sir etadi. Bundan esa vorislik qonuni kelib chiqadi.

Bugungi kunda o‘zbek adabiyotidagi badiiy yangilanishlar, shakily-mundarijaviy izlanishlar mustaqillikning qo‘ga kiritilishi tufayli milliy tafakkurda paydo bo‘lgan o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Darhaqiqat, istiqlol yillari o‘zbek adabiyotida inson ongiga yo‘nalgan falsafiy-intellektual ohang ancha kuchaydi. Asarlarda inson ruhiyati, fikrari, his – tuyg‘ularning keng silsilasini turfa ziddiyatli bo‘yoqlarda aks ettirish, odamzod shuurini band etgan muammolarni butun murakkabligi bilan suvratlantirish, shaxsning yuksak milliy-umuminsoniy mohiyatini jonli tarzda ochib berishga intilish yetakchi yo‘nalishga aylandi. Ijtimoiy ongda yuzaga kelgan o‘zgarishlar ifodasi sifatida ko‘ngil dunyosining teran qatlamlariga kirib borish, o‘zgarayotgan ma’naviy olamni idrok etishning yangicha shakl-tamoyillarini kashf etish uslubiy-shakliy izlanishlar tabiatini hamda ko‘lamini belgilab bera boshladi. Ijod, e’tiqod va so‘zga munosabat tubdan yangilandi.

Natijada, insonni va uning xarakterini, ichki va tashqi dunyosini, umid va intilishlarini, hayoti va kurashini ta’svirlash jahon adabiyotida asta-sekin rivojlanib bordi.

Kishilarning o‘zaro aloqalari va munosabatlari natijasida jamiyat hayotida bir biridan farqlanadigan, ammo bir-biriga faol ta’sir qiladigan nisbatan mustaqil bo‘lgan bir qancha tizmlar- qismlar, bo‘laklar, elementlar amal qiladi. Ularning birgalikdagi

faoliyati jamiyatning bir butun va doimiy o‘zgarishda bo‘lgan dinamik tizim sifatida amal qilishini ta’minlaydi. Umuman olganda “tizim” iborasi deyarli barcha narsa, ob’ekt va hodisalami tavsiflaydi va ularning nisbatan kichikroq qismlardan, bo‘laklardan, elementlardan tashkil topganini hamda ular o‘rtasida muayyan aloqalar, bog‘lanishlar mavjudligini bildiradi. “Tizim”ning normal amal qilishida uning turli qismlari o‘rtasidagi aloqa va munosabatlar belgilovchi rol o‘ynaydi. Dinamik, ya’ni o‘zgarishda bo‘lgan tizim juda ko‘p, ba’zan son-sanoqsiz doimiy o‘zgarishda bo‘lma gan qismlar va elementlardan iborat. Ularning har biri o‘z navbatida yanada kichikroq bo‘lgan tizim va elementlarga ajraladi, yoki aksincha, har bir tizim unga nisbatan kattaroq, kengroq hodisaga nisbatan element sifatida amal qilishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, inson va jamiyat tushunchasi adabiyotshunoslik ilmida muhim masalalardan biridir va dolzarbligicha qoladi. Har qanday inson jamiyat bag‘rida tug‘iladi. Adabiyot jamiyatning in’ikosi sifatida davr bilan hamnafas yangilanish va o‘zgarishlarni o‘zida aks ettirib boradi. Bugungi adabiy jarayon ham shaklan va mazmunan yangilanib, o‘zgarishlarni o‘zida aks ettirib bormoqda. Jamiyatdagi har bir muammoni keng ko‘lamda baddiiy usulda yoritib berish: kelib chiqsh sababi va oqibati, uni hal qilish, yechimlarini yoritish – yozuvchi o‘z asrida qahramonlarda mohirona yo‘l bilan aks ettirishi hozirgi zamon adabiyotining talabi bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yo‘ldosh Q. Yoniq so‘z .- Toshkent, Yangi asr avlodi, 2006
2. Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. –Toshkent.: Akademnashr, 2013-yil.
3. Solijonov Y. Haqiqatning sinchkov ko‘zлari. –T.: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2009-yil
4. Ali U. Ko‘ngilga sayr. –T.:Yangi asr avlodi, 2009-yil.